

O'zDSMIga Qozog'iston milliy san'at universiteti delegatsiyasi tashrifi



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga Qozog'iston milliy san'at universiteti "Kino va televideniye rejissyorligi" kafedrasi mudiri Erlan Nurmuxambetov boshchiligidagi delegatsiya tashrif buyurdi.



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'doshev qozog'istonlik mehmonlarga ushbu oliy o'quv yurtidagi ta'lim yo'nalishlari, bu yerda talabalar uchun yaratilgan sharoitlar, nazariy va amaliy mashg'ulotlar uyg'unligi borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumot berdi.



O'z navbatida Erlan Nurmuxambetov ayni paytda Qozog'iston milliy san'at universitetining 10 yilligini nishonlash borasida olib borilayotgan tayorgarlik ishlari, o'zi faoliyat yuritayotgan oliy o'quv yurtida amalga oshirilayotgan ishlar, kelgusi rejalar haqida qisqacha so'zlab berdi. Ochiq muloqot asnosida o'tgan uchrashuvda institut rektori Ibrohim Yo'ldoshev tadbir bo'lib o'tayotgan O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf nomi bilan ataluvchi ko'shk, shoir hayoti va ijodi, talabalarga Muhammad Yusuf qoldirgan boy ma'naviy merosni yetkazish borasida institutda amalga oshirilgan ishlar borasida aytib o'tdi. Qozog'istonlik mehmon institutdagi ta'lim jarayonlarida olib borilayotgan ishlar, bu yerda talabalar uchun yaratilgan sharoitlarga yuqori baho berdi. Ayniqsa, Erlan Nurmuxambetovda hudud florasi, institutdagi ko'kalamzorlashtirish ishlari katta taassurot

qoldirdi.



Tashrif doirasida qozog'istonlik mehmonlar institutdagi suv havzasi, talabalarga mashg'ulotlar o'tkaziladigan sharoitlar bilan tanishdi.



“Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrasiga qarashli O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, oliy toifali kinooperator Hotam Fayziyev nomidagi ijodiy ustaxonada talabalar ko‘proq animatsiya bo‘yicha shug‘ullanadi, maxsus dekoratsiyalar qurishadi, kompyuterda maxsus va murakkab tasvirga olish ishlarini urganishadi. Ushbu o‘quv kinostudiyasida talabalar shuningdek, maxsus grafika dasturlari orqali bilim olishadi.



Kinorejissyor, ssenarist, kinooperator, fotograf Xudoybergan Devonov nomidagi ijodiy ustaxonada esa konoteleoperatorlar 1-2-bosqichda kinooperatorlik sohasi bo'yicha chuqurroq bilimga ega bo'lishadi, chiroq qo'yish mahorati egallashadi, filmlar ko'riladi, filmlarning ko'rik jarayonlari o'tkaziladi. "Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati" kafedrasiga tashrifi davomida kafedra mudiri Iqbol Meliqo'ziyev mehmonlarga ana shular haqida ma'lumotlar berdi.



Qozog'iston milliy san'at universiteti delegatsiyasining O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga tashrifi yakunlariga ko'ra, ikki oliy o'quv yurti o'rtasida talabalarning ijodiy ishlarini hamkorlikda amalga oshirish, o'quv dasturlari, darslik, o'quv qo'llanmalarini hamkorlikda tayorlash singari qator masalalar bo'yicha kelishib olindi. Mehmonlarga institut rektori Ibrohim Yo'ldoshev tomonidan esdalik sovg'alari topshirildi.

Matbuot kotibi